



Sherzod ATAMURADOV,
Turk tili o'qituvchisi, PhD
E-mail: abukomron@mail.ru

ToshDO'TAU dotsenti, f.f.f.d. D.Muhammadiyeva taqrizi ostida

PRAGMATIC FUNCTIONS OF GESTURES AND FACIAL EXPRESSIONS IN INCLUSIVE COMMUNICATION

Annotation

This article analyzes the communicative-pragmatic functions of gestures and facial expressions in inclusive communication. The study emphasizes the harmony between verbal and nonverbal means, which plays a crucial role in ensuring mutual understanding and tolerance among people in socially and culturally diverse environments. The linguistic-pragmatic essence, empathic and integrative functions of gestures and facial expressions, as well as their ethical and psychological significance in inclusive communication, are highlighted.

Keywords: inclusive communication, gesture, facial expression, nonverbal communication, linguistic pragmatics, empathy, tolerance, social signals.

ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ ЖЕСТОВ И МИМИКИ В ИНКЛЮЗИВНОМ ОБЩЕНИИ

Аннотация

В данной статье анализируются коммуникативно-прагматические функции жестов и мимики в инклюзивном общении. Особое внимание уделяется гармонии между вербальными и невербальными средствами, играющей важную роль в обеспечении взаимопонимания и толерантности между людьми в социально и культурно разнообразной среде. Освещаются лингвопрагматическая сущность, эмпатические и интегративные функции жестов и мимики, а также их этико-психологическое значение в инклюзивной коммуникации.

Ключевые слова: инклюзивное общение, жест, мимика, невербальная коммуникация, лингвопрагматика, эмпатия, толерантность, социальные сигналы.

INKLYUZIV MULOQOTDA IMO-ISHORA VA MIMIKANING PRAGMATIK VAZIFALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada inklyuziv muloqotda imo-ishora va mimikaning kommunikativ-pragmatik vazifalari tahlil qilinadi. Muloqot jarayonida verbal va noverbal vositalar o'rtasidagi uyg'unlik, ayniqsa, ijtimoiy va madaniy xilma-xillikka ega muhitlarda, insonlar o'rtasida o'zaro tushunish va bag'rikenglikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Maqolada imo-ishora va mimika vositalarining lingvopragmatik mohiyati, ularning empatik va integrativ funksiyalari, shuningdek, inklyuziv kommunikatsiyadagi axloqiy-psixologik ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: inklyuziv muloqot, imo-ishora, mimika, noverbal kommunikatsiya, lingvopragmatika, empatiya, tolerantlik, ijtimoiy signallar.

Kirish. Zamonaviy kommunikatsiya nazariyasida muloqotning mazmuni faqat so'zlar bilan ifodalangan til birliklari bilan cheklanib qolmaydi. Insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqada noverbal vositalar – imo-ishora, mimika, tana holati, ko'z qarashi va ovoz ohangi kabi belgilar muhim rol o'ynaydi. Chunki ushbu belgilar muloqotning hissiy, psixologik va ijtimoiy tomonlarini ifoda etadi. Ayniqsa, inklyuziv muloqot sharoitida noverbal elementlar insonlar o'rtasida tushunish, hurmat va ishonchni shakllantirishda asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Inklyuziv kommunikatsiya – bu har bir insonning ijtimoiy, madaniy, jismoniy yoki til jihatidan farq qilishi uning muloqotdagi ishtirokiga to'sqinlik qilmasligini ta'minlovchi aloqa shaklidir. Bunday muloqotda har bir kishi teng huquqli subyekt sifatida qabul qilinadi va o'z fikrini erkin ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu sababli, inklyuziv kommunikatsiyada so'zsiz ifoda vositalari – imo-ishora va mimika – insonlar o'rtasidagi hissiy bog'lanishni mustahkamlovchi emotsional ko'priklar vazifasini bajaradi. Shu nuqtayi nazardan, inklyuziv muloqotni samarali tashkil etish uchun noverbal kommunikatsiya madaniyatini rivojlantirish zarur hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Inklyuziv muloqot va noverbal kommunikatsiya masalalari bo'yicha xorijiy va

mahalliy tadqiqotlar so'nggi yillarda keng o'rganilmoqda. Dastlabki ilmiy yondashuvlar E.Hall (1976) tomonidan ilgari surilgan madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyasi bilan bog'liq bo'lib, unda madaniyat insonlarning fazoviy masofa, imo-ishora va tana tilini talqin etishida asosiy omil sifatida ko'rsatilgan. R.Birdwhistell (1970) esa kinesika tushunchasini ilmiy muomalaga kiritib, imo-ishorani nutqdan mustaqil, ammo ma'noni to'ldiruvchi noverbal tizim sifatida izohlagan. Shuningdek, P.Ekman va W.Friesen (1969) yuz ifodalarning universal kategoriyalarini o'rganib, mimikaning emotsional holatlarni ifodalashdagi tabiiy va madaniyatga xos jihatlarni tahlil qilgan.

M.Argyle (1988) o'zining "Bodily Communication" asarida imo-ishora, tana holati va ko'z qarashining ijtimoiy signallarni yetkazishdagi pragmatik rolini asoslab bergan. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, noverbal vositalar nafaqat his-tuyg'ularni, balki ijtimoiy maqom va o'zaro hurmat darajasini ham ifodalaydi. J.A.Hall va M.L.Knapp (2013) tomonidan ishlab chiqilgan noverbal kommunikatsiya modeli esa imo-ishora va mimikaning lingvopragmatik vazifalarini tizimli tahlil qilib, ularning suhbatdoshlar o'rtasida hissiy uyg'unlik yaratishdagi ahamiyatini yoritadi. D.Matsumoto va H.Hwang (2013) esa noverbal xatti-harakatlarning ilmiy

tadqiqot metodikasini takomillashtirib, madaniyatlararo o'zgaruvchanlikni empirik asosda o'rgangan.

Shuningdek, Y.Habermas (1984)ning kommunikativ harakat nazariyasi ham inklyuziv muloqot tushunchasini anglashda muhim falsafiy poydevor yaratgan. Uning fikricha, muloqotning maqsadi – o'zaro tushunish va ijtimoiy integratsiyani ta'minlashdir, bu esa noverbal vositalar orqali qo'llab-quvvatlanadi. Ushbu nazariy asoslar shuni ko'rsatadiki, imo-ishora va mimika muloqot jarayonining lingvopragmatik hamda empatik komponenti sifatida inklyuziv kommunikatsiyaning samaradorligini oshiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot mavzusining yoritilishida tavsiflash, tasniflash, kontekstual tahlil kabi tadqiqot va tahlil usullari qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar. Inklyuziv muloqotda noverbal vositalarning o'rni o'ta muhim bo'lib, u insonlar o'rtasidagi tushunish, hurmat va samimiylilik muhitini shakllantirishda bevosita ta'sir ko'rsatadi. Noverbal vositalar – bu imo-ishora, mimika, tana holati, ovoz ohangi, pauza, ko'z qarashi va hatto insonning masofa tanlovi kabi so'zsiz ifoda shakllaridir. Ular muloqot jarayonida so'zlar bilan ifoda etilmaydigan histuyg'ularni yetkazadi, munosabatning samimiyligi yoki sovuqligini anglatadi.

Inklyuziv kommunikatsiya mohiyat e'tibori bilan insonlarning teng huquqli, hurmatli va bag'rikeng asosda o'zaro aloqa qilishini ta'minlaydi. Bunday muloqotda noverbal vositalar, ayniqsa, turli madaniyat, til yoki jismoniy imkoniyatlarga ega shaxslar o'rtasidagi aloqa to'siqlarini yengishda katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, imo-ishora va yuz ifodalari ko'pincha til farqlarini kompensatsiya qiluvchi vosita sifatida ishlaydi, shu orqali ishtirokchilar bir-birini yaxshiroq tushunish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, noverbal signallar inklyuziv muhitda empatiya va ishonchni kuchaytiruvchi omil sifatida xizmat qiladi. Tana tili orqali ifodalangan e'tibor, ochiq holatdagi gavda, jilmayish yoki yumshoq ovoz ohangi muloqot ishtirokchisida qadrlanish va qabul qilinish hissini uyg'otadi. Bu esa psixologik jihatdan qulay, ijobiy muloqot atmosferasini yaratadi. Inklyuziv muloqotda noverbal vositalar so'zli muloqotni to'ldiruvchi, hissiy aloqani mustahkamlovchi va madaniyatlararo to'siqlarni kamaytiruvchi muhim komponent sifatida namoyon bo'ladi. Ular yordamida insonlar o'zaro farqlariga qaramay, umumiy tushunish va hurmat asosida muloqot o'rnata oladilar.

Imo-ishoraning pragmatik vazifalari muloqot jarayonida ma'no va niyatni to'g'ri yetkazish, suhbatdoshning e'tiborini yo'naltirish hamda kommunikativ maqsadni samarali amalga oshirishga xizmat qiladi. Pragmatika nuqtayi nazaridan imo-ishoralar so'zlarning bevosita ma'nosidan tashqari, nutqning yashirin maqsadini ifodalovchi vosita hisoblanadi (Hall & Knapp, 2013: 80). Ya'ni, inson so'z bilan nimanidir aytsa, imo-ishora orqali uni qanday ruhiy holatda, qanday niyat bilan aytayotganini ko'rsatadi. Masalan, bosh silkish, qo'l harakati yoki yelka qisish kabi imo-ishoralar rozilik, befarqlik yoki e'tiroz ma'nosini noverbal tarzda bildiradi.

Imo-ishoraning asosiy pragmatik vazifalaridan biri – nutqni to'ldirish va kuchaytirishdir. Ayrim holatlarda so'zlar yetarli bo'lmaganda, insonlar imo-ishora yordamida o'z fikrini to'liqroq ifodalaydi. Shuningdek, imo-ishoralar muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatni tartibga soladi, ya'ni hurmat, yaqinlik, sovuqlik yoki ustunlik kabi ijtimoiy rollarni ifodalaydi (Argyle, 1988: 105). Shu jihatdan, ular kommunikativ kontekstda sotsial-pragmatik belgilar sifatida namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, imo-ishoralar madaniy va kontekstual shart-sharoitga bog'liq bo'lgan pragmatik vositalardir. Bir xalq madaniyatida ijobiy ma'noga ega bo'lgan imo, boshqa madaniyatda salbiy yoki tushunarsiz bo'lishi mumkin. Shu

sababli, ularni to'g'ri talqin qilish uchun madaniyatlararo kompetensiya muhim ahamiyatga ega.

Mimikaning kommunikativ va ijtimoiy funksiyalari inson muloqotining tabiiy va ajralmas qismi bo'lib, u so'zlardan mustaqil ravishda ma'no uzatish, hissiy holatni ifodalash hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish vazifasini bajaradi. Kommunikativ nuqtayi nazardan, mimika so'zli nutqni to'ldiruvchi va boyituvchi vosita hisoblanadi. Masalan, jilmayish samimiyligni, qoshni chimirish norozilikni, hayrat ifodasi esa e'tiborni bildiradi. Shu tarzda, yuz ifodalari suhbatdoshga nutqning emotsional fonini yetkazadi, muloqotni tabiiy va ta'sirchan qiladi.

Ijtimoiy funksiyasi jihatidan esa mimika insonlar o'rtasida ijtimoiy rollarni, maqomni va munosabatlar darajasini ifoda etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, rasmiy vaziyatlarda mimika cheklangan va nazorat ostida bo'ladi, norasmiy, do'stona muhitda esa erkin va ochiq bo'ladi. Bu holat jamiyatdagi axloqiy me'yorlar va madaniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq. Shuningdek, mimika ijtimoiy moslashuv jarayonida – ya'ni insonning jamoada o'z o'rini topishida, ijobiy taassurot qoldirishida ham muhim rol o'ynaydi.

Mimikaning yana bir muhim jihati shundaki, u universallik va madaniy xususiyat o'rtasida joylashgan. Ba'zi mimik ifodalar (masalan, quvonch, g'azab, hayrat) deyarli barcha xalqlarda bir xil talqin qilinadi, biroq ularning intensivligi yoki qo'llanish konteksti madaniyatdan madaniyatga farq qiladi. Shu sababli, mimika madaniyatlararo muloqotda tushunishni osonlashtiruvchi ham yoki aksincha, noto'g'ri talqin sababli to'siq bo'lishi ham mumkin. Umuman, mimika – bu muloqotning hissiy ko'zgusi bo'lib, u nafaqat so'zlarning ma'nosini aniqlashtiradi, balki insonlar o'rtasidagi ijtimoiy masofa, hurmat va samimiyat darajasini ham belgilaydi.

Imo-ishora va mimikaning lingvopragmatik uyg'unligi muloqot jarayonida so'zli (verbal) va so'zsiz (noverbal) vositalarning o'zaro bir-birini to'ldiruvchi va ma'noni kuchaytiruvchi holda ishlashini anglatadi. Lingvopragmatika nuqtayi nazaridan, imo-ishora va mimika nutqning mazmunini, hissiy va ijtimoiy kontekstini aniqroq ifodalash uchun xizmat qiladi. Inson faqat so'zlar bilan emas, balki tana tili, yuz ifodalari va harakatlar orqali ham o'z niyatini, kayfiyatini, munosabatini bildiradi. Shu bois, muloqotning samaradorligi ko'pincha aynan verbal va noverbal belgilar uyg'unligiga bog'liq bo'ladi.

Imo-ishora nutqdagi semantik mazmunni aniqlashtirsa, mimika emotsional ohangni belgilaydi. Masalan, biror so'z ijobiy ma'noda ishlatilayotgan bo'lsa-da, sovuq yuz ifodasi yoki befarq harakat bu ma'noni inkor qilishi mumkin. Aksincha, samimiy jilmayish yoki ochiq harakat so'zga iliqlik va ishonch bag'ishlaydi. Demak, imo-ishora va mimika so'z bilan ifodalangan ma'no va niyatning pragmatik uyg'unligini ta'minlaydi, ularning o'zaro mosligi esa muloqotning tabiiyligi va samimiyligini oshiradi (Hall & Knapp, 2013: 75). Shuningdek, lingvopragmatik jihatdan bu uyg'unlik madaniyatlararo kommunikatsiyada ham alohida ahamiyatga ega. Turli madaniyatlarda bir xil imo yoki mimika turlicha ma'noni anglatishi mumkin. Shu sababli, bu vositalarning to'g'ri talqini muloqotdagi noto'g'ri tushunishlarning oldini oladi va inklyuziv muloqot muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tahlillardan ko'rinadiki, inklyuziv muloqot jarayonida imo-ishora va mimikaning pragmatik vazifalari insonlar o'rtasida o'zaro tushunish, emotsional uyg'unlik va ijtimoiy muvozanatni ta'minlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ular so'z bilan ifoda etilgan mazmunga qo'shimcha ma'no kiritib, muloqotning hissiy va ijtimoiy qatlamini boyitadi. Shu orqali imo-ishora va mimika insoniy aloqaning tabiiy komponentiga, muloqotning

samimiyligini ta'minlovchi lingvopragmatik mexanizmga aylanadi.

Inklyuziv kommunikatsiya mohiyat e'tibori bilan har bir insonning teng huquqli, hurmatli va qabul qilingan subyekt sifatida ishtirok etishini nazarda tutadi. Bunday muloqotda noverbal vositalar – xususan, imo-ishora va mimika – so'zli muloqotning semantik chegaralarini kengaytirib, insonlar o'rtasidagi ruhiy masofani qisqartiradi, ijtimoiy hamjihatlik va bag'rikenglik tamoyillarini mustahkamlaydi.

Shuningdek, bu vositalarning madaniyatlararo kontekstdagi o'rni ham alohida e'tiborga loyiq. Chunki turli madaniyat vakillari o'rtasida muloqotda noverbal ifodalar universallik va madaniy o'ziga xoslikni birlashtirgan holda, noto'g'ri talqinlarning oldini oladi va empatik aloqa o'rnatishga

yordam beradi. Shu jihatdan, imo-ishora va mimikaning to'g'ri, kontekstga mos ishlatilishi tolerantlik madaniyatining amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Demak, imo-ishora va mimika inklyuziv muloqotda shunchaki bezak yoki tabiiy refleks emas, balki mazmuni to'ldiruvchi, emotsional uyg'unlikni yaratuvchi, psixologik iqlimni boshqaruvchi va ijtimoiy integratsiyani mustahkamlovchi kommunikativ vositadir. Ularning ongli va madaniyatga mos qo'llanishi nafaqat samarali muloqotni ta'minlaydi, balki jamiyatda bag'rikenglik, hurmat va insonparvarlik qadriyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu tarzda, noverbal vositalar inklyuziv kommunikatsiyaning asosiy ko'prigi va ijtimoiy barqarorlikning pragmatik kafolati sifatida qaraladi.

ADABIYOTLAR

1. Argyle, M. (1988). *Bodily communication* (2nd ed.). London: Methuen.
2. Birdwhistell, R. L. (1970). *Kinesics and context: Essays on body motion communication*. University of Pennsylvania Press.
3. Ekman, P., & Friesen, W. V. (1969). The repertoire of nonverbal behavior: Categories, origins, usage, and coding. *Semiotica*, 1(1), 49–98. <https://doi.org/10.1515/semi.1969.1.1.49>
4. Habermas, J. (1984). *The theory of communicative action* (Vol. 1). Beacon Press.
5. Hall, E.T. (1976). *Beyond culture*. Anchor Books.
6. Hall, J. A., & Knapp, M. L. (2013). *Nonverbal communication*. De Gruyter Mouton.
7. Matsumoto, D., & Hwang, H. S. (2013). *Nonverbal communication: Science and applications*. Sage Publications.